Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319208

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ZAMONAVIY BUXGALTERIYA MODELINING AJRALMAS ELEMENTI

Sativaldieva Gulchexra Xudayberdievna – katta o'qituvchi, Andijon mashinasozlik instituti "Buxgalteriya hisobi va menejment" kafedrasi. Andijon shahri. O'zbekiston Respublikasi.

Andijon mashinasozlik instituti "Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi

4 –kurs talabasi. Andijon shahri. O'zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya: Xar bir tashkilotning buxgalteriya hisobi tizimi tashkilotning boshqa boshqaruv tizimlariga foydalanish uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlarni tayyorlaydi. Ammo uning ishonchsizligi jixatidan muammolar mavjud, yani turli xil buxgalteriya operatsiyalarini takrorlash, xatolar va noto'g'ri hisoblash kabi masalalar. Ushbu maqolada buxgalteriya hisobida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari xamda buxgalteriya hisobini tashkil etish tizimi, axborot texnologiyalari va ularning buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishdagi o'rni ko'rib chiqildi.
Kalit so'zlar: Buxgalteriya hisobi, buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish, axborot texnologiyalari, hisob tizimi, dasturiy ta'minot.

Ma'lumki, axborot tizimlari va texnologiyalari tez sur'atlar bilan jahon iqtisodiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Ular tashkilot va korxonalarga barcha darajadagi iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni tez va samarali hal qilish imkonini beradi.

Texnik taraqqiyot ishlab chiqarish va hududiy ta'sir doiralarini kengaytirib, buxgalteriya hisobidagi muammolar manbalaridan biri bo'ldi, biroq, boshqa tomondan, ularni biznes muhitiga raqamlashtirishni joriy etish ko'rinishidagi echimini ham ta'minladi.

Raqamli texnologiyalarga asoslangan axborot tizimlarini joriy etish orqali jamiyat faoliyatining istalgan sohasini, shu jumladan buxgalteriya hisobini maksimal darajada avtomatlashtirish va tizimlashtirish imkoniyati axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi tufayli yuzaga keldi.

Buxgalteriya hisobidagi raqamli tizimlar va texnologiyalar korxonaning odatiy boshqaruv tuzimini bosqichma-bosqich o'zgartirmoqda. Buxgalteriya hisobini raqamlashtirish buxgalteriya ma'lumotlarini qayta ishlash sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Malakali buxgalterning ishi hisobni tashkil qilishni takomillashtirishga ko'proq yo'naltiriladi.

Bir qator olimlarning ishlarida axborot texnologiyalarini mohiyatini tahlil qilishning nazariy jihatlari bayon etilgan, jumladan N.P. Kondrakov [2], M.V. Konevoy, A.A. Grishin va boshqalar. Ilmiy ishlarda buxgalteriya hisobini raqamlashtirishga innovatsion yondashuvlar muhokama qilinadi. Lekin shu kunga qadar korxonalarda axborot tizimlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ko'plab hal etilmagan masalalar qolmoqda. Shu bois buxgalteriya hisobida axborot tizimlari va

Published: 10.11.2023

Cite this article: Sativaldieva Gulchexra Xudayberdievna (2023). Axborot texnologiyalari zamonaviy buxgalteriya modelining ajralmas elementi. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319208

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlarini, mamlakatimiz korxonalari uchun buxgalteriya hisobini raqamlashtirishning asosiy vazifalari va ahamiyatini aniqlash zarur.

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish tizimi buxgalteriya hisobini yuritish tartib-qoidalarini, muomalalarini hujjatlashtirish va qayta ishlashni tezlashtirish imkoniyatini beruvchi vosita, shuningdek, ichki nazorat vositasidir.

Bugungi kunda korxona uchun u yoki bu buxgalteriya dasturini tanlashning ob'ektiv omillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- barcha funktsiyalarning mavjudligi;
- har tomonlama xizmat ko'rsatish;
- foydalanish qulayligi;
- texnik yordam;
- etkazib beruvchining vakolatlari;
- masofaviy ishlash imkoniyati;
- ma'lumotlar almashinuvi va sinxronizatsiya;
- biznesni takomillashtirishga moslashish va buxgalteriya hisobining yangi tizimlarini joriy etish;
- ma'lumotlarning maxfiyligi;
- dasturiy mahsulot narxi.

Informatsion iqtisodiyotni talablariga ko‘ra buxgalteriya hisobini raqamlashtirish quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: dasturiy, axborot va tashkiliy-uslubiy qismlardan.

Iqtisodiy muhit qonunlariga muvofiq buxgalteriya hisobidagi eng so'nggi axborot texnologiyalari (IT) buxgalteriya hisobi va iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash, axborot ma'lumotlarini eng kam xarajat bilan uzatish, saqlash va namoyish qilishning tubdan yangi vositalari va usullari to'plamidir. [1]. Axborot texnologiyalari mehnat, energiya va moddiy resurslar xarajatlarini kamaytirish va hayotning ko'plab sohalarida ish tezligini oshirish uchun axborot jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish muammolarini hal qilish uchun mo'ljallangan. Ular tashkilotning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatida muhim rol o'ynaydi....

Axborot texnologiyalari buxgalteriya hisobi va hisobotini avtomatlashtiradi, ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlaydi, shuning uchun hisoblash va aloqa qurilmalari bilan qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanmasdan bugungi kunda buxgalteriya hisobini tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda buxgalterlarning ishi ijodiy jarayonga aylandi, buxgalterning faoliyati hisob – kitob uchun emas, balki tahlil va nazorat uchun ko'proq kerak bolmoqda. Garchi dasturiy ta'minot bosh buxgalterning o‘rnini bosolmasa ham, buxgalteriya hisobidagi matematik xatolarni bartaraf etishga, korxonaning hozirgi moliyaviy holatini va uning istiqbollarini baholashga yordam beradi.

Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishga ta'sir etuvchi va axborot texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq bo'lgan muhim omillarni quyidagilar tashkil etadi [2]:

− xo‘jalik faoliyatini hujjatlashtirish va aks ettirishning zamonaviy imkoniyatlari;

− dastlabki ma’lumotlarni, sintetik va analitik hisob registrlarini tekshirishda yuzaga keladigan xatolarni monitoring qilish va bartaraf etish tizimini tashkil etish;
− kompyuter texnologiyalari, aloqa va axborot uzatishni modernizatsiya qilish;
− axborot kommunikatsiyalar tizimidan foydalangan holda buxgalteriya hisobi uchun mantiqiy muomalalalrni avtomatlashtirish qobiliyati;
− buxgalteriya hisobini yuritishning yangi texnologiyalarining paydo bo‘lishi;
− aylanma varaqlari, reestr tizimlari, statistik jadvallar, ularni shakllantirishning aniq bosqichlari va axborotni qayd etish va saqlash usullaridan foydalanish.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda buxgalteriya ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatiga asoslangan yagona raqamli пространство shakllantirish istiqbolli g'oyalar bo‘lib, bu ham Blockchain texnologiyasi bo‘yicha mutaxassislarning buxgalteriya hisobi jarayoniga jalb qilinishiga olib keladi. Buxgalteriya hisobida blokcheyn texnologiyasidan foydalanishning xususiyatlari uch tomonlama yozuvdan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, buxgalteriya hisobvaraqlarining debeti va krediti bo'yicha muomalalarni an'anaviy ko'rsatish o'rniga, muomalalar davlat yoki xalqaro reestrda ham aks ettiriladi.

Bundan tashqari, blokcheyn texnologiyasidan foydalanish real vaqt rejimida tranzaktsiyalar ko'rinishida ko'rsatiladigan aktivlar harakatini soddalashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, Blokcheyn texnologiyalari mahsulot yaratishning har bir bosqichida katta xarajatlarsiz qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan raqamli auditdan foydalanish imkonini beradi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishning uzluksiz jarayoni va IT-texnologiyalarni rivojlantirish buxgalteriya hisobi vositalarini ishlab chiqish yo‘nalishidagi mavjud tadqiqotlarni davom ettirishni taqozo etmoqda. Ushbu tadqiqot iqtisodiyotni raqamli modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi tizimidagi o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlarini aniqlashga qaratilgan.

Iqtisodiyotni global raqamlashtirish va zamonaviy muammolari sharoitida shakklangan hisob tizimini o‘zgartirish quyidagi asosiy yo‘nalishlardan iborat:
• buxgalteriya hisobini yuritishni tezligini va samaradorligini oshirish uchun qayta ishlashning barcha bosqichlarida buxgalteriya hisobi ma’lumotlarining ishonchliligi va to‘g‘riligi ustidan nazoratni kuchaytirish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalar va kompyuter hisobi dasturlarini qo‘llash;
• buxgalteriya hisobini raqamlashtirish, shu jumladan blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish, bu alohida muomalalarning mehnat sigimini kamaytirish, alohida muomalalarni hisobga olishda ma'lumotlarning takrorlanishini bartaraf etish va buxgalterni hisob-kitob ishlaridan ozod qilish imkonini berad

Buxgalteriya hisobida raqamli texnologiyalardan foydalanishning inkor etib bo‘lmaydigan afzalliklariga qaramay, bu buxgalteriya xodimlarining malakasiga qo‘yiladigan talablarni oshirishini, korxona boshqaruvi tuzilmasini o‘zgartirish, yangi kadrlarni ishga olish va mavjud kadrlarni tayyorlash zarurligini unutmasligimiz kerak. Axborot-konsalting texnologiyalarini joriy etish, nazorat va buxgalteriya jarayonlarini raqamlashtirish axborotning shaffofligini oshiradi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish nazorati va sifatini oshiradi.

Adabiyotlar:

1. Информационные системы и технологии: Научное издание / Под ред. Ю.Ф. Тельнова. − Москва: Юнити, 2016. − 303 с.
2. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет [Текст]: учебник / Н. П. Кондраков. – Москва: Инфра - М, 2015. – 367 с.
3.Безрукова Т.Л., Шанин И.И., Жабина А.И. Современные методы автоматизации бухгалтерского учета // Успехи современного естествознания. – 2015.–№1-4.–С.664-666.
4. Бабаев Ю., Петров А. «Бухгалтерский учет. Учебник» / Изд. Проспект, 2018.
5. Черткоева, Д.Р. Роль IT-технологий в сфере бухгалтерского учета / Д. Р. Черткоева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. − 2020. − № 34 (324). − С. 72-74. − URL: https://moluch.ru/archive/324/73216/ (дата обращения: 10.03.2021).